
MAHALLALARDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHGA OID TADBIRLAR O'TKAZILMOQDA



Mahallalarda jinoyatchilikni oldini olishga oid tadbirlar o'tkazilmoqda

1-sektor hududidagi 27-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayevning Sohibkor va Tul mahalla fuqarolar yig'inlari aholisi bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Ikki mahalla fuqarolari va yoshlar qatnashgan mazkur tadbirda kunning asosiy masalalari, ayniqsa, hududda jinoyatchilikni oldini olish va uni jilovlashda mahalla yettiligining faoliyati tahlil qilindi.

Tadbir avvalida tuman hokimi davlatimiz rahbari g'amxurligi va Respublika hukumati e'tibori asosida mahallalarda olib borilgan va amalga oshirilayotgan obodonlashtirish va keng ko'lamli qurilish-ta'mirlash, bunyodkorlik ishlari haqida gapiridi va bo'layotgan barcha ishlarga "labbay" deb javob berish lozimligini qayd etdi.

Tadbir jarayonida jinoyatchilikga qarshi kurash va uni oldini olishda mahalla yettiligi faoliyati tahlil qilindi. Mazkur yo'nalishda hamkor tashkilotlar bilan mustahkam aloqalarni yo'lga qo'ygan holda ish olib borish yuzasidan taklif, tavsiya va qat'iy ko'rsatmalar berildi hamda "Mahallamizni jinoyatdan xoli hududga aylantiramiz" shiori ostida faoliyat olib borish shartligi alohida ta'kidlandi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati







[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-31 18:11:41